

INTERFEYSNING INTELLEKTUAL MULK HUQUQI OBYEKTI SIFATIDAGI O‘RNINI VA UNI HIMOYA QILISH VOSITALARINI

Nasriddinov Ramazon Dilshod o‘g‘li

Master student of Tashkent State University of Law

nasriddinov.ramazon19@gmail.com

ANNOTATSIYA

Bu maqolada interfeysning intellektual mulk huquqidagi o‘rni, uni himoya qilish muammolari haqida so‘z yuritilgan. Shu bilan birga maqolada interfeysni mualliflik huquqi bilan himoya qilish tarafdorlarining ham, uni sanoat namunasi sifatida himoya qilish zarurligini ta’kidlaydigan mutaxassislarining ham fikrlari va bu fikrlarga olib kelgan asoslari keltirilgan. Fikrlar amaliyot bilan dalillanishi uchun real caselarga ham murojaat qilingan.

Key words: *interfeys, intellektual mulk, mualliflik huquqi, sanoat namunasi, yassi sanoat namunasi, Elektron hisoblash mashinalari, ixtirolar, foydali modellar, API, Google, Oracle, Samsung, Apple.*

KIRISH

Kompyuter programmalarining interfeyslari haqida ko‘plab ishlar o‘rganilganligiga qaramasdan, ularning huquqiy tabiyati haqidagi qarashlar hali ham aniq tartibga solinmagan. Shu sababli bu muammoni hal qilish kundalik hayotning zaruriy sharti hisoblanadi. Bundan tashqari bu shartni kompyuter sohasining jadal sur‘atda rivojlanishi ham yuzaga keltirmoqda. Intellektual mulk huquqi olimlari interfeysni himoya qilish bo‘yicha turli xil qarashlarga egalar. Ularning ayrimlari uni mualliflik huquqi bilan himoya qilish kerak deb hisoblasalar, boshqalari aksincha sanoat mulki doirasida patentlash orqali himoya qilish kerak degan fikrdalar. Bu

qarashlar bilan bir qatorda uni boshqa o'ziga xos usullar orqali muhofaza qilish kerak degan olimlar guruhi ham uchab turadi.

Birinchi guruh olimlari qatorida K. Mehmonov, E. Kotenko, B. Semenyuta kabilarni keltirishimiz mumkin.

Maqolada ilmiy bilishning qiyoslash, induksiya, deduksiya, analiz, sintez usullaridan foydalanilgan.

O'rganish natijasida interfeys qanday vosita orqali himoya qilinishi eng maqbul usul ekanligi aniqlangan. Bu natija xulosa qismida beriladi.

ASOSIY QISM

Kundalik hayotda interfeys bilan bog'liq muammolar juda ko'plab uchraydi, bu jarayonda qonunchilik tizimi interfeys atamasi nima ekanligiga ta'tif bermagan o'rinlar ham talaygina. Bu holatlar esa huquqni qo'llovchi idoralarga ham o'z huquqlarini tiklashni istayotgan tomon uchun ham ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Interfeys qanday himoya qilinishi lozim degan savolga turli olimlarda turlicha javoblar mavjud. Ba'zi olimlar u sanoat namunasi sifatida himoya qilinishi kerak deb hisoblasalar, boshqalari u mualliflik huquqi doirasida himoya qilinishi kerak degan tushunchadalar. O'zi interfeys qanday himoya qilinishi kerakligi qanday himoya vositalari bilan himoya qilinsa samaraliroq bo'lishi haqida quyida so'z yuritimiz.

Yuqorida interfeys nima ekanligiga juda ko'plab qonunchilik tizimlarida javob berilmaganligini aytib o'tdik. Shu qatori O'zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimida ham interfeys tushunchasiga ta'rif berilmagan. Shu sababli birinchi navbatda interfeys nima ekanligiga to'xtalib o'tishimiz lozim. Interfeys deganda foydalanuvchi turli xil, murakkab, texnologik mashinalar, qurilmalar va uskunalar bilan o'zaro aloqada bo'lishini ta'minlaydigan vositalar va usullar to'plami tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasida huquqiy himoya obyektlari keltirib o‘tilgan. Unda EHM uchun yaratilgan dasturlar yoki ma’lumotlar bazalari yoxud ularning biron-bir qismiga asos bo‘lgan g‘oyalar va prinsiplarga, shu jumladan interfeys hamda algoritm tashkil qilish go‘yalari va prinsiplariga, shuningdek dasturlash tillariga nisbatan himoya choralari tatbiq etilmaydi¹ deyiladi. Bu ko‘pgina mutaxassislarni interfeys mualliflik huquqi doirasida himoya qilinmaydi degan xulosaga kelishiga sabab bo‘lgan. Ammo K. Mehmonovning fikricha yuqoridagi qonunda interfeys himoya obyekti sifatida keltirilmagan bo‘lsa ham mualliflik huquqining himoya doirasi har qanday dasturlash tilida va har qanday shaklda ifodalanishi mumkin bo‘lgan elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlarning barcha xiliga (amaliyot tizimlari va dasturiy majmualarga) nisbatan, boshlang‘ich matn va obyekt kodiga nisbatan ham, shuningdek ma’lumotlarni tanlash va tashkil etish bo‘yicha ijodiy mehnatning natijasi bo‘lgan ma’lumotlar bazalariga nisbatan tatbiq etiladi. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi qonunga muvofiq, audiovisual asar, ya’ni bir-biri bilan bog‘langan tasvirlarning yozib olingan turkumidan iborat bo‘lgan, tegishli texnika vositalari yordamida ko‘rib va eshitib idrok etish uchun mo‘ljallangan asar, shu jumladan dastlabki yoki keyingi qayd etish usullaridan qat’i nazar, kinematografiya asarlari va kinematografiyanikiga o‘xshash vositalar bilan ifodalangan barcha asarlar (tele va videofilmlar, diafilmlar, slaydfilmlar hamda boshqa asarlar) mualliflik huquqi obyekti hisoblanadi. Chuqquroq o‘ylab ko‘rilsa, kompyuter interfeysi ham audiovisual asarga muayyan jihatlari, ya’ni bir biri bilan bog‘langanligi, (ovozli bo‘lishi) jihatidan o‘xshashlik mavjud. Demak, kompyuter interfeysi qonunda belgilangan talablarga javob bersa, u holda mualliflik huquqiy himoya obyekti bo‘lishi mumkin². Shu bilan

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida”gi qonuni

² Intellektual mulk. Darslik. Mas’ul muharrirlar: y.f.d. prof., O. Oqyulov, y.f.f.d. (PhD), dotsent N.E. Gafurova // Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashiryoti, 2019. -266-bet.

birga Mehmonovning fikricha “Ixtirolar, foydali modellar, sanoat namulari to‘g‘risida”gi qonuning 8-moddasida

Matbaa mahsulotlari, arxitektura obyektlari, sanoat, gidrotexnika inshootlari va boshqa statsionar inshootlar, suyuq, gazsimon, sochiluvchan yoki shunga o‘xshash moddalardan iborat o‘zgaruvchan shakldagi obyektlar, buyumning faqat texnik vazifasi bilan bog‘liq bo‘lgan yechimlar, jamoat manfaatlariga, insonparvarlik va axloq qoidalariga zid yechimlar sanoat namunasi obyekti hisoblanmasligi interfeyslarni sanoat namunasi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazishni inkor etadi¹.

Yuqoridagi fikrga o‘xshab ko‘plab boshqa olimlar ham interfeys mualliflik huquqi doirasida himoya qilinishi kerak deb hisoblaydilar va bunga dalil sifatida interfeys ham kompyuter dasturining bir qismi ekanligini va u yozilgan kod orqali mavjud bo‘lishini keltirib o‘tishadi². Masalan, E. Kotenkning fikricha interfeys kompyuter dasturining bir qismi va u alohida tushunilmasligi lozim³.

Ammo boshqa olimlar interfeys kompyuter dasturi bilan birga umumiy himoya qilinmasligi kerak deb hisoblaydilar. Ularning fikricha interfeys va kompyuter dasturlari bir biridan alohida hisobga olinishi mumkin. Agar ular birga hisoblansa interfeysni muallifning roziligsiz ishlatish kompyuter programmasiga bo‘lgan mualliflik huquqining ham buzilishiga olib keladi. Bu guruhdagi olimlar interfeys mualliflik huquqi bilan emas, boshqa vositalar orqali himoya qilinishi lozim degan fikrdalar. Masalan, bunday olimlardan biri B. Semenyutening fikricha interfeys mualliflik huquqidan boshqa vositalar bilan, hozirda himoya vositasi sifatida foydalanilmayotgan huquqiy rejimlar bilan yoki sui generis qoidalari bilan himoya qilinishi lozim⁴. Sui generis mualliflik huquqi bilan himoya qilinmaydigan, lekin himoya qilinishni talab qiladigan obyektlarga qo‘llaniladigan rejim.

¹ Intellektual mulk. Darslik. Mas‘ul muharrirlar: y.f.d. prof., O. Oqyulov, y.f.f.d. (PhD), dotsent N.E. Gafurova // Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashiryoti, 2019. -264-bet.

² Право интеллектуальной собственности: Учебник / Е.С. Гринь, В.О. Калятин, С.В. Михайлов и др.; под общ. ред. Л.А. Новоселовой. М.: Статут, 2017. Т. 2: Авторское право. 367 с.

³ Котенко Е.С. Авторские права на мультимедийный продукт: монография. Москва: Проспект, 2013. 128 с.

⁴ Семенюта Б.Е. Графический пользовательский интерфейс программы для ЭВМ: проблемы правового регулирования // Вестник Арбитражного суда Московского округа. 2015. № 2. С. 42 - 58.

A. Savelyevning fikricha interfeysni mualliflik huquqi doirasida himoya qilish boshqa kompyuter dasturlar yaratuvchilari uchun qiyinchilik keltirib chiqarishi mumkin va ularni tayyor narsani yana qayta yaratishiga majbur qiladi¹.

Yuqorida fikrga monand Amerika Qo'shma Shtatlarida sud presedenti

Bu case Google va Oracle kompaniyalari o'rtasida Java Interfeysidan (Application Programming Interfaces) noqonuniy foydalanganligi sababli yuzaga kelgan. 2010-yilda Oracle kompaniyasi sudga Googlening Android tizimini yaratayotganida Javaning interfeysidan foydalanganligini va bu Oraclening patent va mualliflik huquqlarini buzishini ma'lum qilgan. Oraclening iddaosiga ko'ra u Google Javaning 11.500 qator kodlarini ko'chirgan. Bu kodlar mualliflik huquqi bilan himoya qilinmasa ham Java interfeysi himoyalangan bo'lgan. Shu sababli u Googledan 9 milliard undirishni so'ragan. Bu case bir nechta bosqichlarda ko'rib chiqilgan. 2012-yilda federal sud Google foydasiga qaror chiqarib interfeys mualliflik huquqi bilan himoya qilinmasligini ma'lum qilgan. Ammo bu qarorga rozi bo'lmagan Oracle kompaniyasi apellatsiya tartibiga murojaat qilgan. 2014-yilda esa apellatsiya sudi birinchi instansiya sudining qarorini bekor qilib, ishni yana birinchi instansiya sudiga qaytargan va Googlening Java interfeysidan foydalanish doirasini qayta ko'rib chiqish majburiyatini yuklagan. Bu qarordan norozi bo'lgan Google Amerika Oliy Sudiga murojaat qilgan, lekin u ishni qabul qimagan. Birinchi instansiyaga qaytarilgan ish 2016-yilda yana Google foydasiga hal qilingan. Sud Googlening Java interfeysidan foydalanishini adolatli deb topgan va bunga asos qilib Google ko'chirilgan kodlarni Java foydalanayotgan maqsadlardan boshqa maqsadda foydalanayotganligini keltirgan. Ish yana Oliy Sudda ham ko'rilganligiga qaramasdan Oliy Sud ham Googlening Java kodlarini foydalanishdan maqsadi yangi kompyuter programmasini yaratish bo'lganligini keltirgan².

¹ Савельев А.И. Актуальные вопросы судебной практики в сфере оборота программного обеспечения в России // Вестник ВАС РФ. 2013. № 4. С. 4 - 36.

² <https://zuniclaw.com/en/google-v-oracle-case/>

Ammo bu qarorga rozi bo'lmagan bir qancha mutaxassislar ham topiladi. Ualrning fikricha bu case Oracle foydasiga hal etilishi lozim edi¹. Bizning fikrimizcha ham bu holatda interfeys himoya qilinishi lozim edi. Foydalanish qanday maqsadda, qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'i nazar intellektual mulk obyekti muhofaza qilinishi lozim.

Yuqorida interfeysni mualliflik huquqi doirasida va boshqa vositalar orqali himoya qilinishi tarafdorlari bo'lgan olimlarning fikrlari bilan tanishib chiqdik, endi intellektual mulk huquqida shunday mutaxassislar ham borki, ularning qarashiga ko'ra bu obyekt sanoat namunasi sifatida ko'rilishi kerak. Masalan, intellektual mulk huquqi mutaxassisi Yuldashev Abdumo'minning fikricha Interfeys intellektual mulk obyekti sifatida yassi sanoat mulki sifatida himoya qilinishi kerak.

Amaliyotda interfeysni mualliflik huquqi bilan ham sanoat namunasi sifatida beriladigan patent bilan ham himoyalash mumkin. Bunda inobatga olinishi kerak bo'lgan jihati interfeys sanoat namunasi sifatida patentlanishi uchun belgilangan ma'lum bir qoidalarga javob berishi lozim. Interfeys patent huquqi bilan himoya qilinishiga Apple va Samsung o'rtasida bo'lib o'tgan caseni misol qilishimiz mumkin. Bu caseda Apple Samsung o'zining patent bilan himoyalangan huquqlarini buzganlikda ayblagan. Buzilgan huquqlar orasida interfeysga bo'lgan huquq ham bore di. Yuqorida keltirib o'tilgan Google va Oracle case esa interfeyslarni mualliflik huquqi bilan himoya qilinishiga dalil bo'lishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida ikki xil qarash egalarining o'z yo'nalishlari mavjud va u ma'lum ma'noda to'g'ri, ammo mening fikrimcha interfeys mualliflik huquq bilan himoya qilinishi kerak, chunki interfeysni vujudga keltiruvchi algoritmlar ketma-ketligi xuddi kompyuter programmalarini vujudga keltirgandek bir xil tarzda yozib chiqiladi. Shunday ekan interfeys kompyuter programmasining bir bo'lagi sifatida qaralishi lozim va ular bir butun obyekt sifatida himoyalaniishi kerak.

¹ <https://medium.com/nod-IP-law/google-v-oracle-case-9ca1903bb532>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Савельев А.И. Актуальные вопросы судебной практики в сфере оборота программного обеспечения в России // Вестник ВАС РФ. 2013. № 4.
2. Семенюта Б.Е. Графический пользовательский интерфейс программы для ЭВМ: проблемы правового регулирования // Вестник Арбитражного суда Московского округа. 2015. № 2. С. 42 - 58.
3. Котенко Е.С. Авторские права на мультимедийный продукт: монография. Москва: Проспект, 2013
4. Право интеллектуальной собственности: Учебник / Е.С. Гринь, В.О. Калятин, С.В. Михайлов и др.; под общ. ред. Л.А. Новоселовой. М.: Статут, 2017. Т. 2: Авторское право
5. Intellektual mulk. Darslik. Mas’ul muharrirlar: y.f.d. prof., O. Oqyulov, y.f.f.d. (PhD), dotsent N.E. Gafurova // Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashiryoti
6. Геоинформатика. Толковый словарь основных терминов. М.: ГИС-Ассоциация, 1999.
7. <https://medium.com/nod-IP-law/google-v-oracle-case-9ca1903bb532>
8. <https://zuniclaw.com/en/google-v-oracle-case/>